

Date: 23<sup>rd</sup> December-2025

AHOLIGA KO'RSATILADIGAN SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM XIZMATI  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Mirzaabdullayeva Xurshida Shavkatjon qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

[mirzaabdullayevaxurshida@mail.com](mailto:mirzaabdullayevaxurshida@mail.com)



**Dolzarlighi.** Aholiga ko'rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordam tizimi sog'liqni saqlash sohasining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi bevosita aholining hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishga ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda yiliga o'rtacha 8,2 milliondan ortiq fuqaro shoshilinch tibbiy yordam xizmatiga murojaat qiladi, shundan 65–70 foizi haqiqiy shoshilinch holatlar bilan bog'liqdir. Shu bois, shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, chaqiriqlarga tezkor javob berish, xodimlar malakasini oshirish va texnik bazani mustahkamlash sog'liqni saqlash siyosatining dolzarb vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PQ-209-son qarorida shoshilinch tibbiy yordam tizimini raqamlashtirish, chaqiriqlarni yagona dispetcherlik markazi orqali boshqarish hamda aholiga o'z vaqtida yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan.

**Material va usullar.** Tadqiqot 2023–2024-yillar davomida Farg'ona viloyati shoshilinch tibbiy yordam markazi va uning sakkizta tuman filiallarida olib borildi. Jami 147 520 ta chaqiriq tahlil qilinib, bemorlarning yoshi, jinsi, kasallik turi, tibbiy yordam ko'rsatilgan sharoit, brigadalarining voqea joyiga yetib borish vaqti va bemorlarning sog'ayish ko'rsatkichlari o'rganildi. Tahlil natijalari statistik usullar yordamida qayta ishlanib, variatsion, korrelyatsion va regressiv tahlil metodlari qo'llanildi.

**Tadqiqot natijalari.** O'rganish natijalariga ko'ra, Farg'ona viloyatida shoshilinch tibbiy yordam brigadalari voqea joyiga o'rtacha  $9,3 \pm 0,8$  daqiqa ichida yetib borgani aniqlandi. Shahar hududlarida bu ko'rsatkich 7,8 daqiqa, tuman va qishloq joylarda esa 11,5 daqiqa bo'ldi. Chaqiriqlarning 27,4 foizi yurak-qon tomir kasalliklariga, 18,6 foizi nafas yo'llari va o'pka kasalliklariga, 14,2 foizi turli travmatik holatlarga, 8,9 foizi zaharlanish va allergik reaksiyalarga, 30,9 foizi esa boshqa etiologiyali kasalliklarga to'g'ri keldi. Ko'rsatilgan yordam natijasida bemorlarning 63,5 foizi joyida barqarorlashgan, 31,8 foizi kasalxonaga yotqizilgan, 4,7 foizida esa og'ir klinik kechish kuzatilgan.

Bemorlarning yosh tarkibi tahliliga ko'ra, 18 yoshgacha bo'lganlar 12,4 foizni, 19–60 yosh oralig'idagilar 68,7 foizni, 60 yoshdan kattalar esa 18,9 foizni tashkil etgan. Bemorlarning sog'ayish ko'rsatkichlari tibbiy brigada tarkibidagi mutaxassislarining tajribasi, tibbiy jihozlanish darajasi va aloqa vositalarining mavjudligiga bevosita bog'liq ekani aniqlandi ( $r=0,72$ ;  $p<0,05$ ). Shuningdek, raqamlashtirilgan chaqiriq boshqaruvi tizimi joriy etilgan hududlarda brigadalar chaqiriqqa javob berish tezligi 12,4 foizga yaxshilangani qayd etildi.

**Xulosalar.** Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyatida shoshilinch tibbiy yordam tizimi umumiy jihatdan samarali ishlamoqda, biroq qishloq joylarda

Date: 23<sup>rd</sup> December-2025

transport va aloqa infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi xizmat tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli tizim samaradorligini oshirish uchun tibbiy brigadalarni zamonaviy texnika va transport vositalari bilan jihozlash, "Yagona chaqiriq markazi" tizimini to'liq raqamlashtirish, xodimlarning malakasini doimiy oshirib borish hamda aholining birlamchi yordam ko'rsatish bo'yicha tibbiy savodxonligini yuksaltirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar shoshilinch tibbiy yordam sifatini oshirish, o'lim holatlarini kamaytirish va aholining hayot sifatini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

